

**ALBERT KAMYUNING “BEGONA” ASARIDAGI BOSH QAHRAMON  
MERSO VA BOSHQA ASARLAR BILAN  
O‘XSHASH JIHATLARI**

*Termiz Davlat Universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi*

*To‘rayeva Nigina*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ekzistensializm oqimining yorqin vakili Albert Kamyuning mashhur “Begona” qissasi tahliliga bag‘ishlangan. Muallif asarda bosh qahramon Mersoning hayotga va jamiyatga bo‘lgan munosabatini, uning fojeaviy qismatini, shaxsiyati va o‘ziga xos dunyoqarashini o‘rganadi. Qahramonning begonaligi va jamiyat tomonidan qabul qilinmasligi, shuningdek, inson qalbi daxlsizligining falsafiy asoslari ochib berilgan. Qissaning asosiy voqealari – Mersoning qotillikka sabab bo‘lgan holati, sud jarayonlari va o‘lim jazosi sahnalari orqali inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlar yoritilgan. Asar o‘quvchini inson tabiatining mazmuni, erkinlik va mas‘uliyat masalalarini o‘ylashga undaydi.

**Kalit so‘zlar:** Albert Kamyu, ekzistensializm, “Begona”, Merso, jamiyat, inson qalbi, sud jarayoni, falsafiy tahlil, shaxsiyat, o‘ziga xoslik.

Ekzistensializm oqimining yirik namoyandasi Albert Kamyu Jazoirida tug‘ilgan. “Vabo” romani, “Begona” qissasi, “Kaligula” pyesalari mashhur.

“Begona” qissasi 1940-yilda yozib tugatilgan. 1942-yilda nashr qilingan. XX asr fransuz adabiyotining, aniqrog‘i “Kamyu avlodining eng yaxshi asari”, “Asr san’atidagi eng yirik falsafiy asotirlardan biri” deb baholangan.

Yaratilganiga 60 yildan ko‘p bo‘lganiga qaramay “Begona” hanuz Fransiyada sevib o‘qiladigan asarlardan hisoblanadi. Qissa vatanida emas, jahonning boshqa mamlakatlarda ham mashhur.

Asar qahramoni Merso o‘ta rostgo‘y, munofiqlikni bilmaydigan o‘zgalar u haqda nima o‘ylashlari bilan qiziqmaydigan shaxs. Asar voqeasi Mersoning onasio‘limi

haqidagi telegrammani olishidan boshlanadi. Merso xatning rasmiy mazmunini uncha anglamaydi, chunki onasi uning uchun ilgariroq, qariyalar uyiga joylaganda o'lgan edi. U dafn marosimida ko'proq jismoniy noqulaylikni his qiladi: tuni bilan uxlamagan, buning ustiga kun issiq.

Mersoni mansab, obro', boylik ham uncha qiziqitirmaydi. Boshlig'i Parijda yaxshi lavozimni taklif qiladi, Merso esa unga baribir ekanini aytadi. Birga ishlagan kasbdoshi Marini yoqtirardi. Uning hayotida kutilmagan hodisa yuz berib qotilga aylanadi. Qumloqda yolg'iz kezib yurgan yigit Raymonni ta'qib qilib yurgan arabni otib qo'yadi. U ruhiy hissiyotlarga befarq, ammo jismoniy hodisalarga sezuvchanlik yuqori. Ramziy ma'noda uni quyosh qotillikka undaydi.

Qissaning ikkinchi qismi Mersoning erkinlikdan mahrum qilgan va sud jarayoni tasviridan iborat. Sud jarayoni lavhasi Merso tabiati, shaxsining o'ziga xosligini, uning fojeasini yorqin namoyon qiladi. Mersoning Mari bilan qamoqxonadagi uchrashuvi, Marining tabassumi, ularning atrofidagi holatlar, ona va jinoyatchi o'g'ilning bir-biriga unsiz termulishi, odamlarning tasvirlari qissaning eng ta'sirli epizodlaridandir. Prokuror uni ayblaydi. Aslida insonning qalb dunyosi daxlsizdir, uni o'y-fikri, xayollari, tuyg'ulari uchun ayblashga boshqa insonning haqqi yo'q.

Uni sudda xudoga ishonmagani uchun ham ayblaydilar. Jamiyat Mersoni qotilligi uchun emas, barchaga o'xshamagani uchun kechirmaydi va o'limga mahkum etadi. Oxirida u tavba-tazarrudan emas, o'zligiga, ko'ngil haqiqatiga sodiq qolib bu dunyodan ketayotganidan ko'ngli taskin topadi. (Mersoning onasi ham "Odamzod butkul bebaxt bo'lmaydi" derdi).

Tolstoyning "Tirilish" romanida ham mana shunday nohaq ayblanganlar, nohaq qamalib jazolanib qamoqqa olinganlarni ko'rishimiz mumkin. 130 kishini pasportining muddati o'tib ketganligini sababli 2 oy davomida qamalib yotganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Frans Kafkaning "Jarayon" asarida ham asar boshida Yozufka bosh qahramonini ham nohaq ayblanishi, nima uchun sudda ekanligi bilmasligini ko'rishimiz mumkun. Bundan ko'rinib turibdiki bu uchchala asarda yuridik ishlarda oqsash, siyosatning chirkin voqealarini ochib bergan.

Asarda Mari, Raymond, Mason, Toma Perez, Salamanko chol, Emmaniul, Selest kabi obrazlar orqali voqealarni bir-biriga ulaydi.

Albert Kamyu yaratgan bu qahramon ustida bahslar hali uzoq davom etadi. Asar kitobxonni hayot va inson haqida o'ylashga, mushohada yuritishga chorlayveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Сартр. Экзистенциализм тўғрисида./ —Жаҳон адабиёти|| журнали, 1997. 5 сон.
2. Экзистенциализм: Албер Камю. /Муҳаммаджон Ҳолбеков, —Жаҳон адабиёти|| Журнали, 2013б 11 сони.
3. InteresnyeFakty.org. [www.24smi](http://www.24smi).
4. Солижонов Йўлдош. —Сизиф ва абсурд||. [www.Xurshid](http://www.Xurshid) Davroz.uz.
5. Тўйчиева Шаҳноза. —Чўлпон ва Камю||. —Жаҳон адабиёти|| журнали, 2001. Июнь.